

ALEKSANDR FAYNBERG VA ALISHER NAVOIY IJODIDA SO'Z VA MA'NAVIYAT FALSAFASI

Olimova Shahina Botirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada turli davrda va madaniy muhitda ijod qilgan ikki ijodkor- Sharq olamining yetuk vakili, g'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy hamda zamonaviy shoir va tarjimon Aleksandr Faynberg ijodi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Alisher Navoiy va Faynbergning ijodida so'zga muhabbat, inson kamoloti, ma'naviyat haqida so'z boradi. Navoiy asarlarida so'z ilohiy haqiqatni anglash vositasi sifatida ishlatilsa, Faynberg she'riyatida esa so'z insonning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi falsafiy qurol singari namoyon bo'ladi. Maqola davomida Aleksandr Faynberg va Navoiy ijodida nafaqat o'xshash, balki ularning mushtarak va farqli tomonlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: so'z qadri, G'arb va Sharq shoirlari ijodi, insoniy kamolot, inson ruhiyati, ruhiy kechinmalar, she'riyat olami.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the work of two artists who worked in different periods and cultural environments - Mir Alisher Navoi, a prominent representative of the Eastern world, the sultan of the ghazal realm, and Alexander Feinberg, a modern poet and translator. The research focuses on the love of words, human perfection, and spirituality in the works of Alisher Navoi and Feinberg. While in Navoi's works, words are used as a means of understanding divine truth, in Feinberg's poetry, words appear as a philosophical weapon expressing human spiritual experiences. The article highlights not only the similarities in the works of Alexander Feinberg and Navoi, but also their common and different aspects on a scientific basis.

Keywords: the value of words, the work of Western and Eastern poets, human perfection, human psyche, spiritual experiences, the world of poetry.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ творчества двух художников, работавших в разные периоды и культурные среды: Мира Алишера Навои, видного представителя восточного мира, султана газельного искусства, и Александра Файнберга, современного поэта и переводчика. Исследование сосредоточено на любви к слову, человеческому совершенству и духовности в произведениях Алишера Навои и Файнберга. Если в произведениях Навои слова используются как средство постижения божественной истины, то в поэзии Файнберга слова выступают как философское оружие, выражающее духовные переживания человека. В статье освещаются не только сходства в творчестве Александра Файнберга и Навои, но и их общие и различные аспекты на научной основе.

Ключевые слова: *ценность слов, творчество западных и восточных поэтов, человеческое совершенство, человеческая психика, духовные переживания, мир поэзии.*

KIRISH

Adabiyot insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim ko'zgusidir. Turli davr va makonda ijod qilganiga qaramay, Alisher Navoiy va Faynberg adabiyot va inson ma'naviy olami uchun kerak bo'lgan sarmahzul ijod namunalarini qoldira oldi. Navoiy inson kamoloti va uning ruhiyatiga bag'ishlangan turli asarlar bitgan bo'lsa, Faynberg insonning ichki ruhiy kechinmalari haqida bir qator she'rlar yozdi.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotning asoschisi, o'zbek mumtoz she'riyatining asoschisi hisoblanadi. Navoiy Sharq adabiyotida 5 dostonidan iborat bo'lgan, ilk marotaba turkiy tilda yozilgan asari „Xamsa“ bilan dunyo adabiyot ixlosmandlari ko'nglidan joy oldi.

„Xamsa“ dagi har bir doston negizida insonning tafakkurini o'stirish, uning kamoloti va ruhiyatiga ma'naviy ozuqa berish yotadi. Uning asarlarida komil inson g'oyasi, adolat, muhabbat, vatanparvarlik va axloqiy poklik asosiy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek va rus adabiy muhitida shakllangan ijodkor Aleksandr Faynberg Toshkentda tug'ilib, butun umrini yurtda o'tkazgan va o'zini o'zbek adabiy muhitining ajralmas qismi deb bilgan. Aleksandr Faynberg so'zni inson ichki olamini ko'rsatib beruvchi vosita sifatida qo'llab, she'rlarida inson umri, hayoti va hissiyotlarini chuqur tahlil qiladi va badiiylik bilan ifodalaydi. Uning she'riyatida insoniylik, do'stlik, vaqt, hayot mazmuni va tabiat go'zallik kabi mavzular yetakchi o'rin egallaydi. She'rlari o'zining sodda, samimiy hamda falsafiy ruh bilan ajralib turadi.

Asosiy qism. Navoiy va Aleksandr Fanyberg ijodini taqqoslaganda, avvalo, ularning inson haqidagi qarashlaridagi umumiy jihatlar e'tiborga molik. Navoiy komil inson timsolini yaratib, uni o'uvchilarga namuna sifatida ko'rsata beradi hamda u jamiyatning asosiy tayanchi degan fikrni ilgari suradi. Faynberg esa insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va hayotiy kechinmalarini lirik ohangda ifodalaydi. Har ikki ijodkor uchun inson ma'naviy olami, uning dunyoqarashi muhim hamda insoniylik va ma'naviy poklik eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Alisher Navoiy „Xamsa“ asarining „Farxod va Shirin“ dostonida komil inson qiyofasini yaratadi. Dostonning bosh qahramon Farxod qiyofasi mardligi va jasurligi, sadoqatli, mehnatsevar, fidoiy, axloqiy pok va yuqori ma'naviyat timsoli sifatida gavdalanadi. Bundan tashqari, Navoiy uchun haqiqiy komil inson- bu muhabbatni tushunadigan va qadrlaydigan shaxs hisoblanadi. Farxod ham Shiringa bo'lgan munosabatida samimiyligi va pokligi bilan ajralib turadi. Komil inson sifatlarining eng yaxshisi irodalilik va qat'iyatlilikdir. Navoiy Farxodni qiyinchiliklarga chidaydigan obraz sifatida tasvirlaydi, doston davomida Farxod Shiringa yetishish uchun chinakam

mashaqqatlarni boshidan o'tkazadi va sabr, matonat bilan yengib o'tadi. Farxod bu kabi fazilatlari o'quvchilar uchun haqiqiy komil shaxs portretini chizishga ko'maklashadi.

Farqli jihatlar haqida to'xtalsak, ikki shoirning badiiy uslubi va darvlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Navoiy mumtoz she'riyat an'alariga tayangan holda aruz vaznida, ramziy va tasavvuf ilmi bilan obrazlar yaratib, asarlari orqali o'quvchiga komil inson sifatlarini ko'rsata bera olgan. Faynberg esa erkin, zamonaviy poetik shakllardan fopydalanib, oddiy hayotiy manzalar orqali o'z g'oyalarini tushuntirgan. Navoiy asarlarida tasavvufiy-falsafiy ramz va obrazlar yetakchi o'rinda tursa, Faynberg ijodida real hayotiy tasvirlar va inson ruhiyati ko'proq aks etadi.

Shuningdek, Faynberg Alisher Navoiy ijodini rus tiliga tarjima qilgan ijodkorlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Faynberg asarlarni tarjimasi orqali ikki xalq orasida madaniy ko'prik vazifasini bajaradi, rus adabiyot ixlosmandlarini o'zbek adabiyoti, ayniqsa, mumtoz adabiyotini chuqur o'rganishiga hissa qo'shadi. Manbalarga ko'ra, Aleksandr Faynberg Alisher Navoiyning „Xazoyin ul-maoniy“ devonidan saylanma g'azallarni tarjima qilgan hamda Navoiy asarlarining rus tilidagi ko'p jildli nashrlarini tayyorlash va tarjima qilish jarayonida ishtirok etgan.

Xulosa. Umuman olganda, Alisher Navoiy va Aleksandr Faynberg turli davr va makonda yashagan bo'lsalar-da, ularning ijodini ma'naviylik, insoniylik, ezgulik kabi insoniy sifatlar birlashtirib turadi.

Navoiy o'z asarlarida komil shaxs idealini yaratgan bo'lsa, Faynberg zamonaviy she'riyatda inson qalbining nozik kechinmalarini ifodalagan. Har ikki shoir o'z davrida inson qiyofasini badiiy va ma'naviy qiyofasini tasvirlaydi hamda ularning ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Navoiy va Faynberg ijodida markaziy o'rinni inson qadr-qimmat, ruhiy poklanish va ma'naviy yetuklik masalalari egallaydi.

Navoiy bu g'oyani mumtoz obrazlari orqali ifodalagan bo'lsa, Faynberg ularni zamonaviy hayot manzalari va shaxsiy kechinmalar bilan boyitadi. Har ikkala ijodkor uchun ham adabiyot-inson ruhiyatini ma'naviy oziqlantirish va uni kamolotga yetaklash vositasi sifatida talqin etiladi.

Aleksandr Faynberg va Navoiy ijodi o'rtasidagi badiiy-ruhiy uyg'unlik adabiyotning vaqt va makon chegaralaridan ustun turishini ko'rsatadi. Ijodkorlar ijodi orasidagi bog'liqlik millatlararo madaniy muloqotning yorqin namunasi sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Navoiy, Alisher. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.

2.Navoiy, Alisher. Xazoyin ul-maoniy (Devonlar to'plami). – Toshkent: Fan nashriyoti.

- 3.Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
- 4.Komilov, N. Tasavvuf va badiiy ijod. – Toshkent: Fan, 1996.
- 5.Valixo'jayev, B. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
- 6.Qayumov, A. Navoiy va adabiy muhit. – Toshkent: Fan, 1976.
- 7.Faynberg, Aleksandr. Izbrannoye (Tanlangan she'rlar). – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
- 8.Faynberg, Aleksandr. Stixi i poemy. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- 9.Faynberg, Aleksandr. Perevody iz Alishera Navoi (Navoiydan tarjimalar). – Toshkent, turli nashrlar.
- 10.Karimov, N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
- 11.O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. – Toshkent: Fan nashriyoti.
- 12.Jo'rayev, N. Adabiy aloqalar va qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Universitet nashriyoti.